

mustaqillik yillarida o'zbekiston respublikasining tashqiqtisodiy aloqalar va lining o'rganilishi

*M.Ahrorova. magistrant.
Hmiy rahbar: D.Radjabova, dotsent.*

Xalqaro aloqalar dunyo sivilizatsiyasi va madaniyatning ajralmas qismi hisoblanadi. XX asr oxiri XXI asr boshlariga kelib, jahon tajribasi shuni ko'rsatdiki, xalqaro hamkorlikning yo'lga qo'yilishi va rivojlantirish istiqbolli mamlakatlararo bo'lib xizmat qilishi o'z isbotini topdi. XXI asr globallashtirish va xalqaro hamkorlik va aloqalar asri bo'lmoqda. Bugungi kundagi ushbu hamkorlik masalalari va ularni tadqiqotlarda yoritish dolzarb vazifalardan sanaladi. Mamlakatlarimiz xalqaro munosabatlarning to'laqonli a'zosi sifatida tanilib borayotgan bir paytda tashqi siyosiy va iqtisodiy faoliyat asoslari va uning o'rganilishiga bo'lgan talab ortib bormoqda. "Bugun O'zbekiston jahon hamjamiyatida katta kuch va salohiyatga ega bo'lgan hamda dunyo siyosatining yo'nalishini belgilayotgan davlatlar bilan teng huquqli hamkor sifatida mustahkam aloqalar o'rnatganligining o'zi katta gap. Avvalo shuni aytish kerakki, yosh va hali ancha ta'jribasiz bo'lishiga qaramasdan o'zbek diplomatiyasi dastlabki kunlardan o'q keng qamrovli izchil faoliyat yuritdi". O'tgan davrni keng muhokama qilish, tashqi siyosatning yo'nalishini kuzatib borish va amaliy natijalarini ilg'ab olish, dunyo siyosati taniqli arboblarning bizga nisbatan fikrini o'rganish, jahon ommaviy axborot vositalarida bosilayotgan sharhlar bilan muhokama tarzida chuqurroq tahlil va nihoyat, shular asosida fikrni charxlab, aniq xulosa chiqarish natijasidagina chet davlatlar bilan hamkorlik qilishda ham xuddi shunday konsepsiyani ilgari surgan yurtimiz qisqa fursat ichida o'z o'rniga ega bo'ldi.

Shuningdek, iqtisodiy va siyosiy hamkorlikning huquqiy asoslari hamda tashqi siyosat haqidagi prinsiplarning ishlab chiqilishi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risidagi qonun", "O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalar to'g'risida", "O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari

¹Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqbol, iqtisod, siyosat. maqolalar to'plami. -T.: "O'zbekiston", 1996. 6-bet.

to'g'risida", "Chet el investitsiyalari to'g'risidagi" qonunlar tashqi iqtisodiy faoliyatning huquqiy asoslarini ta'minlab beradi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekiston tashqi iqtisodiy siyosati va uning asosiy xususiyatlarini o'rgangan tadqiqotchilar asosan sovet hokimiyati andozalaridagi iqtisodiy siyosat va uning ahvoli, shuningdek, tashqi iqtisodiy faoliyatning iqtisodiy progresdagi ahamiyatini asoslab berishga harakat qilganlar² O'zbekistonning madaniy hamda iqtisodiy hamkorligi masalalarining analitik tahlillari keltirilgan asarlarni ham ta'kidlash mumkin. Ularning asarlari mustaqil O'zbekistonning tashqi siyosati, integratsiyasiga bag'ishlangan bo'lib, asosan g'arb yozuvchilarining asarlariga taqqoslangan asosda yozilgan. Masalan, D. Nishonovning nomzodlik ishining amaliy ahamiyati shundan iboratki, 90-yillardagi O'zbekistonning xalqaro maydonga kirib kelishi, shuningdek, 90-yillardagi "qayta qunsh siyosati" buning natijasida iqtisodiyotni yo'lga qo'yish bilan birga faol tashqi siyosat olib borish o'z ichiga oladi³. Sobiq ittifoq davrida tashqi aloqalarda faqat ittifoqdosh respublikalar bilan cheklanib qolgan bo'lsak, mustaqillikdan so'ng ushbu davlatlarning safi kengaydi. Shuningdek, ularning izlanishlari samarasi o'laroq hamkorlikni yo'lga qo'ygan davlatlarning ijtimoiy-siyosiy strategiyasi hamda hamkorlikning ikki va ko'p tomonlama manfaatlarini aks ettirilishi ko'zda tutilgan. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng olib borilgan ikki va ko'p tomonlama aloqalar soha ustida izlanayotgan tadqiqotchilarning asosiy tadqiqot obyektiga aylandi. Masalan, A. Xalilov yevning nomzodlik ishi Mustaqil O'zbekistonning AQSh va Buyuk Britaniya davlatlari o'rtasidagi iqtisodiy, ilmiy-texnik hamda madaniy hamkorlik masalalariga bag'ishlangan bo'lib, qisqa fursat ichida xalqaro maydonda o'z o'rniga ega

² Шарапова С. Основные проблемы становления и развития внешней политике республики Узбекистан. Автореферат диссертации. -Ташкент, 1997.

2. Нишонов Д. Внешняя политика реет блики Узбекистан в 90-е годы XX века - Москва, 2008.

3. Холлиев А. Экономические, научно-технические и культурные связи независимого Узбекистана в Великобритании и США Автореферат диссертации - Ташкент, 1998.

³ Qarang. Нишонов Д. Внешняя политика республики Узбекистан в 90-е годы XX века. - Москва, 2008.

Nuriddinov E. O'zbekistonning Yevropa davlatlari bilan xalqaro hamkorligi. - Toshkent, 2002.

mustaqil O'zbekistonni dunyoning rivojlangan davlatlari bilan (Buyuk Britaniya va AQSh misolida) iqtisodiy va ijtimoiy hamkorlik masalalari yoritilgan.

Mustaqillik yillaridan so'ng Ijtimoiy-iqtisodiy hamkorlik masalalarining yo'lga qo'yilishi va rivojlantirilishi shartlariga bag'ishlangan asarlardan bin Erkin Nuriddinovning "O'zbekistonning Yevropa davlatlari bilan xalqaro hamkorligi" monografiyasidir. Asarda O'zbekistonning xalqaro maydonda tutgan o'rni va ahamiyati, bugungi kundagi ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy-gumanitar hamkorlikning rivojlanishi keng tahlil etilgan. Hamkorlik masalalarida peshqadamlikni qo'lga kiritgan dastlabki davlatlar AQSh, Buyuk Britaniya, Rossiya, Fransiya, Italiya, Germaniya kabi mamlakatlar doirasiga alohida urg'u beriladi. Masalan, mustaqillikning dastlabki o'n yilligida Yevropa Ittifoqi tarkibiga kiruvchi jami 70ta korxona va banklar bilan hamkorlik shartnomalarini imzolandi. Muallifning ta'kidlashicha, ushbu korxonalarning Germaniya (28) Buyuk Britaniya (17) Fransiya (9), Avstraliya (6), Italiya (4), Belgiya (3) va boshqa shu kabi davlatlar hissasiga to'g'ri keladi. "Alkatel", "Lonro", "Mercedes Bens" kabi mashhur firmalar bilan iqtisodiy hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Muallifning ta'kidlashicha, hamkorlikdagi xususiy korxonalarning tashkil etilishi mustaqil davlat sifatida dunyo bozoriga endigina chiqayotgan O'zbekistonning iqtisodiy imkoniyatlarini oshirishga sabab bo'lgan omillardan bin bo'ldi. 1996-yilda 16ta akkreditsiya qilingan xususiy firmalar 66,7 mln dollar qiymatiga ega mahsulot ishlab chiqdi. Monografiyani tahlil qila turib iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda integratsiyalar muhim omil bo'lib xizmat qiladi degan xulosaga kelish mumkin.

Mustaqillik yillarida tashqi iqtisodiy siyosat hamda hamkorlik masalalarga bag'ishlangan yana bir asar Sayfiddin Jo'rayevning "O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosati va diplomatiyasi" risolasidir. Mustaqillik yillaridagi tashqi iqtisodiy faoliyatning yo'lga qo'yilishi haqida to'xtalib o'tar ekan muallif dastlab, O'zbekiston jahonda yetakchi o'rin egallayotgan Yevropa va Osiyoning davlatlari bilan ikki va ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish va mustahkamlashga alohida e'tibor berib kelmoqda.

Ma'lumki, davlatlar bilan bo'ladigan Iqtisodiy integratsiya davlatning har xil ehtiyojlarini qondirish va samaradorligini oshnirishnmg muhim omili hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida fan- texnika taraqqiyotini jadallashtirishga, millatlar va elatlarning yaqinlashuviga, aholining tunnush darajasim oshirishga yordam beradi. Iqtisodiy integratsiya manfaatlar birikuvining xilma-xil mexamzmlari va shakllari hamda integratsiya turlari va uning mavjudligiga asoslanadi.

"Biz integratsiya jarayonlari hamda bozor islohotlarini rivojlantirishga, Markaziy Osiyo mintaqasida umumiy bozorni shakllantirishga alohida ahamiyat beramiz. Faqat o'zming tor milliy qobig'ida qolib ketmagan bozorgina xorijiy investrlaming katta oqimini jalb qilib, mintaq mamlakatlarining barqaror rivojlanishi va farovonligini ta'minlay oladi"¹.

O'zbekistonning MDH va Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti kabi integratsiya uyushmalarida ishtirok etishi mamlakatimizning dunyo miqyosidagi obro'yini yanada orttirdi. MDH davlatlari O'zbekistonning asosiy savdo iqtisodiy hamkorlaridan biri hisoblanadi. Respublika tashqi savdo umumiy hajmining 30 foyizi ular hissasigato'g'ri keladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, bugungi kunda O'zbekistonmng turli xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalarini rivojlantirilishi uning jahon xo'jaligi integratsiyasida samarali ishtirok etishini ta'minlaydi. Bunday xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik o tish davri muammolarim hal etishni, shuningdek, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor xo'jaligini shakllantirishni yengillashtiradi. Bu narsa kreditlar olishda, bevosita xonjiy investitsiyalarni jalb qilishda, mahsulotlarni jahon bozorlariga chiqarishda katta yordam beradi Rivojlanish tendensiyalarinmg mazkur sohalariga bag'ishlangan risola va adabiyotlarning tahlili tadqiqotchilar ilmiy ishlarining maqsadi bo'lib kelmoqda